

Kudratov Akmaljon Ibodillayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi direktori,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

MA'NAVIY EHTIYOJLARNI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVLAR TA'SIRINI ANIQLASHNING EKSPERIMENTAL TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy ehtiyojlari shakllanishida turli motivlar ya'ni muvofaqqiyatga intilish va muvofaqqiyatdan qochish motivlarini o'rni aniqlanganligini ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda ehtiyojlarni shakllantirish darajalari bilan motivlar o'rtasidagi o'zaro bog'liklik aniqlangan.

Kalit so'zlar: Ehtiyoj, motiv, ma'naviy ehtiyoj, korrelatsiya, sinaluvchi va boshqalar.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛИЯНИЯ МОТИВОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ

Аннотация. В статье видно, что в формировании духовных потребностей имели место разные мотивы, т.е. стремление к успеху и избегание успеха. Кроме того, определялась корреляция между уровнями сформированности потребности и мотивами.

Ключевые слова: Потребность, мотив, нравственная потребность, корреляция, тестер и др.

EXPERIMENTAL ANALYSIS OF DETERMINING THE INFLUENCE OF MOTIVES IN THE FORMATION OF SPIRITUAL NEEDS

Annotation. The article shows that there were different motives in the formation of spiritual needs, i.e. desire for success and avoidance of success. In addition, the correlation between the levels of need formation and motives was determined.

Keywords: Need, motive, moral need, correlation, tester, etc.

Dunyoda shaxsning ijtimoiy-psixologik strukturasi tashkil etuvchi, xususan, ehtiyojlar, xatti-harakatlar, xulq-atvor, motivatsion yo'nalganlik va faoliyat muhim omillar sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini barqaror shakllantirish va transformatsiyasini to'g'ri tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda shaxsda ijtimoiy oqilona va sog'lom fikrga zid ehtiyojlarni bir-biridan farqlash nafaqat katta nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Turli xil soxta ehtiyojlar (psevdo-ehtiyojlar) o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Dastlab, ular mavjud me'yorlardan biroz chetga chiqishlar shaklida shaxs psixologiyasida paydo bo'ladi. So'ng, rivojlanib, ushbu chetga chiqishlar ildiz otadi, va individning odat psixologiyasiga aylanadi. Masalan, bolalikdagi hayvonlarga nisbatan shavqatsizlik, xatti-xarakati, odati, shaxsning boshqa odamlarga nisbatan shavqatsizligiga o'sib boradi. Xatto jamiyatga qarshi xulq-atvorning turli ko'rinishlari birinchi bosqichlarda atrofini o'rab turganlarga bo'lgan befarqlik, emotsional psixologik his-tuyg'ularning ta'sir qilmasligi va hokazolarda namoyon bo'lishi ma'lum. Bundan kelib chiqadiki, bunday og'ishlar va xatti-harakatlar bilan aynan erta bosqichlarda kurashish lozim. Bu pirovard natijada ijtimoiy psixologiya jihatdan salbiy ehtiyojlar yoki ularning qondirilishining jamiyatga zid, qarshi shakllarining rivojlanishiga olib keluvchi zanjirni o'z vaqtida uzish imkonini beradi. Ushbu vazifani echishda, jumladan, ta'lim-tarbiya ishlari bilan mashg'ul shaxslarning pedagogik va psixologik madaniyatini xamda bilimni oshirishni talab qilinadi.

Shu bilan birga, shaxsda iste'mol me'yorlari, jamiyatning taraqqiyoti jarayonida bir-birining o'rnini almashtirib turadigan u yoki boshqa davrga xos va mos oqilona ehtiyojlar haqidagi

qarashlar tahlili natijalari me'yorlar va qarashlarda xos mazmundan tashqari avloddan avlodga o'tib kelayotgan, bir davrdan keyingisiga o'tadigan umuminsoniy mazmun ham mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, ehtiyojlarning har bir inson u yoki bu tarzda amal qilishga intiladigan fiziologik optimum bilan bog'liq oqilona jihatlari ham mavjud. Ijtimoiy psixologiyada shaxs qobiliyatining xohish istaklarini tizginlash, ularni boshqarishdagi roli, ehtiyojlarni qondirishda psixologik me'yorga rioya qilish ochlikni qondirish arzon, to'yib, pishqirib ketganlikni qondirish qimmat, moddiy mablag'larini oqilona, ratsional sarflay bilish qobiliyati – bizdan oldingi davrlar madaniyatining barcha shu kabi va boshqa ilg'or (progressiv) elementlari u yoki bu darajada zamonaviy psixologiya tomonidan qabul qilinadi, ushbu madaniyat ularni, zamonaviy shaxsga xos mazmun bilan to'ldiradi.

Darhaqiqat, ma'naviy ehtiyojlarni o'rganish, transformatsiya qilish tizimini samarali tashkil etish, eng avvalo o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari har tomonlama chuqur tahlil qila olishga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, har bir shaxs bilan alohida ishlash undagi shaxslararo munosabatlarda ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishiga daxldor bo'lgan psixologik omillarni o'rganilishi hamda mazkur yo'nalishda tegishli empirik ma'lumotlar yig'ish masalasi tadqiqotning asosiy maqsadi qilib belgilangan. Mazkur paragrafda ushbu muammoga muayyan ilmiy-amaliy oydinliklar kiritish orqali o'spirinlardan olingan empirik ma'lumotlar tahlilini bayon etish ko'zda tutilgan. Chunki, ma'naviy ehtiyojlarni o'spirin shaxsining ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita ta'sirini o'rganish, tahlil qilish va tegishli ilmiy-tavsiyaiy xulosalar chiqarish bilan bog'liqdir.

O'rganilayotgan muammoning mohiyatidan kelib chiqib, tadqiqot ob'ekti sifatida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi va Urgench davlat universiteti akademik litseyidan jami 405 nafar (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyidan 320 nafar va Urgench davlat universiteti akademik litseyidan esa 85 nafar) respodentlar tanlab olindi. Albatta tadqiqot maqsadiga mos empirik ma'lumotlarni yig'ishda universitet va institut rahbariyati, akademik litsey direktorlari hamda akademik litsey amaliyotchi psixologlari yaqindan yordam berdilar.

Shunday ekan, shaxs ma'naviy ehtiyojlari transformatsiyasi jarayonini empirik tadqiq etish orqali muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni qo'lga kiritildi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida sinaluvchilarda ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish motivatsiyasining ahamiyatini o'rganish maqsadida T.Elersning "Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi" va "Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi" testlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari quyidagicha namoyon bo'ldi.

T.Elersning "Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi" va "Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi" testlari bo'yicha guruhlararo ishonch darajasidagi farqlar (n=405)

1-jadval

Motivatsiya	Sinaluvchilar	n1 n2	O'rtacha	Standart og'ish	t	p
Muvaffaqiyatga intilish	QarMII akademik litseyi	320	17,20	3,816	1,182	p≤0,05
	UrDU akademik litseyi	85	18,06	2,110		
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	QarMII akademik litseyi	320	17,98	1,923	1,805	p≤0,001
	UrDU akademik litseyi	85	16,88	2,079		

Izoh: (* r≤0,05, ** r≤0,01, ***r≤0,001).

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish vaqtida ob'ektlarlar o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi yoki yo'qligiga ham e'tiborni qaratdik. Har ikkala ob'ekt sinaluvchilari o'rtasida ishonchli farqlar mavjudligiga guvoh bo'ldindi.

Olingan natijalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, UrDU akademik litsey o'quvchilarida ma'naviy ehtiyojlarga bo'lgan ichki talabning qondirilishi va uning shakllantirishga intilish ko'rsatkichlari (umumiy o'rtacha 18,06) ni tashkil etdi. Bu esa, QarMII akademik litsey sinaluvchilari (17,20)ga nisbatan biroz yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda har ikkala ob'ekt bo'yicha sinaluvchilarda ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishga intilish ko'rsatkichlari me'yorida ($r \leq 0,001$) ekanligi kuzatildi.

Lekin QarMII akademik litseyi o'quvchilarida ma'naviy ehtiyojlarni qondirilishidan qochish motivatsiyasi UrDU akademik litseyi respodentlariga nisbatan yuqori darajada ($r \leq 0,001$) ekanligini guvohi bo'ldik. Bu ko'rsatkichlar QarMII akademik litseyining birinchi kurs o'quvchilariga xos ekanligi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

Sinaluvchilarda eksperimentdan oldin va eksperimentdan so'ng "Muvaffaqiyatga intilish", "Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga intilish" metodikasi bo'yich ko'rsatkichlar (n=405)

2-jadval

Motivatsiya	Sinaluvchilar	n	O'rtacha	Standart og'ish	t
Muvaffaqiyatga intilish	EO	405	17,63	2,430	1,386
	ES	405	19,04	1,353	
Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga intilish	EO	405	17,43	2,236	1,507
	ES	405	6,05	2,593	

Akademik litsey o'quvchilarida ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan dastur asosida o'tkazilgan eksperiment natijalariga ko'ra respodentlarda ko'rsatkichlar o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Sinaluvchilarda muvaffaqiyatga intilish ehtiyojlarini qondirish ko'rsatkichi 17,63%dan 19,04%ga yuqorilaganligini ko'rishimiz mumkin. Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga intilish ko'rsatkichi 17,43%dan 6,05%ga pasayganini ko'rishimiz mumkin. Bu akademik litsey o'quvchilarida ma'naviy ehtiyojlar transformatsiyasining shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik treninglar dasturini samara berganligidan dalolatdir.

Shaxs ehtiyojlarini shakllanganlik darajasi va muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro korrelatsion bog'liqlik (n=405)

3-jadval

Ehtiyojlarning shakllanganlik darajasi	QarMII akademik litseyi		UrDU akademik litseyi	
	Muvaffaqiyatga intilish	Muvaffaqiyatsizlikdan qochish	Muvaffaqiyatga intilish	Muvaffaqiyatsizlikdan qochish
Shakllanganlik darajasi yuqori	,197	-,173	,225*	0,289*
Shakllanganlik darajasi o'rta	0,049	-,038	,066	-,131
Shakllanganlik darajasi past	0,293*	,009	-,010	-,069

Olib borilgan tadqiqot ishi doirasida QarMII va UrDU akademik litseyi sinaluvchilarida muvaffaqiyatga intilish ko'rsatkichi va ehtiyojlarni shakllanganlik faktori past darajada ekanligi

o'rtasida ($r=0,293^*$; $p\leq 0,05$) ijobiy korrelyasiya mavjud. Bu o'zaro bog'liqlik mavjudligi va ishonchli farqlar borligidan dalolat beradi.

QarMII akademik litseyi sinaluvchilarida muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi va Yu.M.Orlovning ehtiyojlar shakllanishi yuqori darajada ekanligi ($r=0,289^*$; $p\leq 0,05$) va muvaffaqiyatga intilish ko'rsatkichi ($r=0,225^*$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Mazkur bog'lanishlar QarMII akademik litseyi sinaluvchilari muvaffaqiyatsizlikdan qochish ko'rsatkichi qay darajada yuqori bo'lsa, ularning ma'naviy ehtiyojlarni transformatsiyasi past bo'ladi. Qolaversa, ularga o'z xohishlari bilan ish yuritish, maqsadlari tomon aniq yo'nalganlik, o'ziga xos dunyoqarash, ijodiy tasavvur, orzu-havas, umumiy qabul qilingan hayotiy me'yorlarni maqullamaslik xususiyati ham xos hisoblanadi.

Mazkur bog'lanishlar sinaluvchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi qay darajada yuqori bo'lsa, ma'naviy ehtiyojlarni shakllanganlik darajasi, shuningdek, kitob o'qishga bo'lgan hoxish va istakning ortishi, ma'naviy merosni to'laqonli asrab avaylashga bo'lgan talab ham yuqori bo'lishi bilan ifodalanadi. Bu esa, ularning ma'naviy ehtiyojlari rivojlanishi, doimiy shakllantirishni oshirib borishida hal etuvchi ahamiyatga egadir.

Metodikalar yordamida qo'lga kiritilgan empirik natijalar o'rtasida ijobiy va teskari munosabatdagi korrelyasion bog'liqlik qonuniyatlari mavjudligini guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения человека.-М.: "Наука" 1999. С 109
2. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.
3. Ильин Е.П. Оптимальные характеристики работоспособности человека/Автореф. докт. дисс. Л.: 1998. -32 с.
4. Ковальев В.И. Мотивы поведения и деятельности. –Москва.: "Наука". 1988, -191 с.
5. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. – М.: 1993. -40 с.
6. Леонтьев А.А. Потребности, мотивы и создание. В.АА. Мотивы сознание в поведение человека-М. "Университет". 1966. 117 с.